

## FARG'ONA SHAHRIDA "COMPASS HOSPITAL" XUSUSIY TIBBIYOT KLINIKASI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Farg'ona shahrida tibbiyot yo'naliishida yirik loyiha amalga oshirilib, "Compass hospital" xususiy tibbiyot klinikasi foydalanishga topshirildi. Mazkur zamonaviy salomatlik maskanining ochilishi katta shodiyonaga aylandi.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov mamlakatimizda sog'lioni saqlash sohasidagi islohotlar avvalo inson manfaati, qadri uchun xizmat qilayotganini ta'kidlab, so'nggi yillarda xususiy tibbiyot jadal rivojlanayotganini qayd etdi. Viloyatimizda ham ular soni tobora ortib, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati oshayotganligi, zamonaviy tibbiy jihozlar keltirilib, sohada ilg'or tajribalar qo'llanilayotganligi mammuniyat bilan tilga olindi. Xususan, mazkur klinika ham ana shu ishlarning uzviy davomidir.

Shaharning Qomus ko'chasida Zafarjon Asqarov tashabbusi bilan foydalanishga topshirilgan "Compass hospital" xususiy tibbiyot maskanida kunlik 300 dan ziyod bemorga ambulator xizmat ko'rsatiladi. 88 ta statsionar o'r'in joylari mavjud. Bu yerda 120 dan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

Ushbu xususiy muassasani barpo etish va zarur tibbiyot apparaturalari bilan jihozlash uchun 8 mln. dollardan ortiq mablag' sarflandi. E'tiborli jihatni, bu yerda neyroxirurgiya, oftalmologiya, ginekologiya, urologiya, xirurgiya, travmatologiya, kardiologiya kabi kasalliliklar davolanadi. 200 dan ortiq jarrohlik amaliyotlarini amalga oshirish imkonii mavjud. Eksimer lazer, ko'z tupi uchun mikroskop, endoskopik operatsiya uchun zamonaviy jihozlar o'rnatildi.

Mehmonlar tibbiyot maskanida yaratilgan sharoitlar, o'rnatilgan zamonaviy tibbiy jihozlar bilan tanishdilar.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-09-14 21:10:58